

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik moyiyatini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji.....	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strtegiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 94:323 (575. 171) (045) A51

KOMIL XORAZMIY ASARLARIDA IJTIMOY-IQTISODIY HAYOT TAHLILI

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ В ТВОРЧЕСТВЕ КАМИЛЯ ХОРЕЗМИ

ANALYSIS OF SOCIO-ECONOMIC LIFE IN THE WORKS OF KOMIL KHOREZMI

Allanazarov Shoxruxbek Farxodovich 

Urganch davlat pedagogika instituti "Tarix" kafedrası o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Sh.F.Allanazarov Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX yuzyillikda yashab ijod etgan buyuk ma'rifatparvar shoir va olim Komil Xorazmiy asarlarida davrning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti yoritilishiga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda muallif asarlarida aks etgan davrning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Komil Xorazmiy asarlarida adolat, mehnat, ilm-ma'rifat va insoniy qadriyatlar masalalariga munosabati ochib beriladi. Maqolada shoir ijodining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati, uning o'z davri ijtimoiy-iqtisodiy voqeligini aks ettirishdagi uslubi va badiiy mahorati ilmiy asosda tahlil etiladi.

Аннотация

В данной статье уделяется внимание отражению социально-экономической жизни эпохи в произведениях великого просветителя, поэта и учёного XIX века Камилы Хорезми. В исследовании анализируются сведения о социально-экономической жизни того времени, представленные в его трудах. Кроме того, раскрывается отношение Камилы Хорезми к вопросам справедливости, труда, науки, просвещения и человеческих ценностей. В статье научно обосновывается значение творчества поэта как исторического источника, его стиль и художественное мастерство в отражении социально-экономической реальности своего времени.

Abstract

This article focuses on the reflection of the socio-economic life of the era in the works of the great enlightener, poet, and scholar of the 19th century – Komil Khorezmi. The study analyzes information related to the socio-economic conditions of that time as depicted in the author's works. Furthermore, it reveals Komil Khorezmi's attitude toward issues such as justice, labor, science, enlightenment, and human values. The article scientifically examines the significance of the poet's creative heritage as a historical source, as well as his style and artistic mastery in portraying the socio-economic reality of his time.

Kalit so'zlar: Komil Xorazmiy, Xorazm vohasi, ijtimoiy hayot, iqtisodiy rivojlanish, ma'rifat, tarixiy manba, adabiy tahlil.

Ключевые слова: Камил Хоразмий, Хорезмский оазис, социальная жизнь, экономическое развитие, просвещение, исторический источник, литературный анализ.

Key words: Komil Khorazmiy, Khorezm oasis, social life, economic development, enlightenment, historical source, literary analysis.

KIRISH

Xorazm deganda, jahon ilm-fani, madaniyat va san'at taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilgan betakror bir o'lka ko'z oldimizga keladi.

Jo'shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'ida unib-o'sgan, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oni, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yuqorida keltirilgan Xorazm haqidagi fikrlariga hamohang ravishda, aynan XIX yuzyillik Xorazm adabiy muhitining davomchisi, buyuk san'atkor, musiqashunos, mohir xattot va tarjimon, davlat arbobi, ma'rifatparvar shoir Komil Xorazmiyni ham e'tirof etish darkor.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu mavzuga oid maqolani yozishda bir qancha adabiyotlar va anjuman materiallaridan foydalanildi. Jumladan, adabiyotlardan, Мирзиёев Ш. Буюк келажегимизни мард ва олижаноб

халқимиз билан бирга қўрамыз, Машарипов О., Машарипов А. Хоразмнома. Ўнинчи китоб. Хоразм кўҳна фан ва маданият маскани, Солаева М. Навоий ва Хоразм шоирлари (Анъанавийлик ва маҳорат масаласи нуқтаи назаридан), Ўзбекистон педагогикаси антологияси: Икки жилдлик. Ж.1. / (Тузувчи-муаллифлар: К.Ҳошимов, С. Очил; Таҳрир ҳайъати: М.Хайруллаев ва бошқ.), Хоразмий К. Танланган шеърлар. (Нашрга тайёрловчи Р.Мажидий), Эшжонов Ш., Қурбонов Р., Аллаберганов С. “Хоразм фидойилари” (Матн). Адабий-бадиий нашр, очерк ва ҳикоялар, Комил. Девон (Нашрга тайёрловчилар А.Ҳайитметов, В.Мўминова), Комил Аваз. Комил Хоразмий: Маърифий-бадиий роман, Каримов Ф. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб (XIX асрнинг иккинчи ярмидан XX аср бошларигача), anjuman materiallaridan esa shoir, xattot, musiqashunos, tarjimon va davlat arbobi Komil Xorazmiy tavalludining 195 yilligi munosabati bilan “Komil Xorazmiy ijodiy merosining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusida o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan foydalanildi. Ushbu adabiyotlar va ilmiy-amaliy anjuman materiallarida mavzuga oid barcha ma’lumotlar etarlicha tahlil etilgan.

Mazkur maqolani yozishda mavzuga doir tarixiy manbalar tahlili amalga oshirildi hamda tarixiy tizimlilik, xronologik yondashuv hamda analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Komil Xorazmiy XIX yuzyillikdagi Xorazmning iste’dodli shoiri, xassos san’atkori, xushxat xattoti, mohir tarjimoni, jonkuyar ma’rifatparvari va xalqparvar davlat arbobi, o’tkir siyosatdoni, jahon madaniyatining ilk targ’ibotchilaridan biri edi [2].

Komil Xorazmiyning lirik merosi bitta devondan tashkil topgan bo’lib, uning bir necha qo’lyozma va toshbosma nusxalari mavjuddir. Ularning ichida eng mukammal deb sanalgan devondagi she’rlar (“Bahri tavil” asaridan tashqari) taxminan 3680 baytdan iborat bo’lib, shoirning lirik merosi haqida to’laroq va aniqroq tasavvur hosil qiladi. Unda g’azal, musaddas, muxammas, masnaviy, ruboiy, qasida kabi janrdagi she’rlar o’rin olgan.

Komil devonidagi ko’pgina g’azallar Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Munis g’azallariga javoban yozilgan tatabbu’lardir ³³ va devondagi muxammaslarning ko’pchiligi Navoiy g’azallariga bog’langandir. Agar biz an’ana tushunchasini keng ma’noda anglaydigan bo’lsak, Navoiy lirikasining Komil she’riyatiga ta’siri faqat uning Navoiy g’azallariga yozgan tatabbu’ va muxammaslaridagina emas, balki Komil lirikasining butun ruhida, obrazlarida, poetik vositalarida, hatto eng original she’rlarining ruhiyatida ham aks etganini ko’ramiz.

Komil g’azali ijtimoiy, falsafiy mundarijaga egadir. Unda shoir o’zining zamondan, ijtimoiy hayot tartiblaridan, shohning adolatsizligidan norozilik kayfiyatlari kuchli hayajon bilan ifoda etilgan.

“Menga zulmin kam etmas gumbazi davvor bir soat,

To’kar g’am xirmanin boshimg’a yuz xarvor bir soat.”

Lirik qahramon boshiga bir soatda yuz eshakka yuk bo’larlik g’am xirmonini to’kayotgan falakdan nolish bilan boshlangan bu g’azalda boshidan oxirigacha shu kayfiyat, shu ruh davom etadi, hayotiy xulosalar, hikmatlar bilan mazmun boyib, chuqurlashib boradi.

“Kima bir xizmat etsam, aylagay o’rniga yuz tuhmat,

Asalga zaxru, gul o’rniga sanchar xor bir soat.

Bo’lib begonavash yillar yamonlig’ oshkor etti,

Kimakim oshnolig’ ayladim izhor bir soat” [3].

Komil bu erda zamona ahlining bevafoolidan zorlanadi. Buning zamirida shoirning o’z hayotiy tajribasi yotgan bo’lsada, bu g’azal mazmuni katta umumlashma kuchga egadir. Shoir faqat o’z ahvolidan emas, ijtimoiy tartiblarning noqobilligidan fig’on chekadi. Shuni e’tiborga olish kerakki, Komilning “Bir soat” radifli g’azali Navoiyning “Har soat”, Ogahiyning “Bir soat” radifli g’azallariga javoban yozilgan tatabbu’ hisoblanadi.

Komil Xorazmiy insonparvarlik, ma’rifatparvarlik g’oyalarini va ta’lim-tarbiya masalalarini ilgari surgan. U o’z ruboiy, muxammaslarida nekin g’oyalarni targ’ib qilgan. Masalan, shoir o’zining “Kamol” g’azalida ilm-ma’rifatni yuksak baholab, shunday deydi:

Emas kishiga bu dunyoda mulk-mol kamol,

Xusuli ilmu hunar keldi bezavol, kamol [4].

³³ Tatabbu’ - bu adabiyotshunoslikdagi atama bo’lib, bir shoirning boshqa shoirning asariga raqobatlashish yoki unga ergashish maqsadida javob yozish usulidir. Bunday javob asarining mavzusi, vazni va qofiyasi o’sha asl asar bilan bir xil bo’lishi shart. Tatabbu ko’pincha g’azal yoki doston shaklida yoziladi.

TARIX

Bu baytda shoirning asosiy g'oyasi - **ilmning ustunligi** va **ma'naviy komillikka** da'vat etishdir. Shoir insonni dunyo moliga berilmaslikka, buning o'rniga ilm va kasb-hunar o'rnatishga chaqiradi. Unga ko'ra, insonni haqiqiy yuksaklikka, **kamolotga** etkazadigan narsa bu **ilm va hunar**dir, **mol-mulk** emas. Boylik – o'tkinchi, vaqtinchalik; Ilm va hunar – **bezavol (yo'qolmas)**, abadiy qadriyatdir.

Komil Xorazmiy jamiyatdagi **nodon, johil, adolatsiz boshqaruvchilarni** keskin tanqid qiladi. Buni quyidagi misralarda yorqin ifoda etgan:

Bo'lubon jolisi avrangi jaholat juhalo,
Urdilar olam aro ko'si hukumat juhalo,
No'sh etib rishva mayin etmay ulus dodig'a,
Bilmadilar dame oyini adolat juhalo... [5].

Komil Xorazmiy bu to'rtlikda **Xiva xonligi davridagi ma'muriy tuzumdagi illatlarni** – poraxo'rlikni, adolatsizlikni, nodonlarning hokimiyatda bo'lishini keskin tanqid qilgan. Shoirning maqsadi – **ilm, adolat va ma'rifatning qadrsizlanishini** ko'rsatish va jamiyatni **jaholatdan ogohlantirish**dir.

Komil o'z asarlarida an'anaviy ishq-muhabbat, may-mahbub, ma'rifatparvarlik, tinch-totuv yashash g'oyalarini targ'ib qiladi. Shoir ijodida ayniqsa, ma'rifatparvarlik g'oyalari etakchi o'rinni egallaydi. Bunga shoirning "Komil", "Dar bayoni ta'rifi va tavsifi Toshkand", "Tillo soat" kabi asarlari yaqqol misoldir. Komil 1891-yil sentyabr oyida Peterburgga borayotib Toshkentda to'xtab "Turkiston viloyatining gazetisi" tahririyatining iltimosi bilan "Toshkent" deb nomlangan qasida yozadi. Uning bu qasidasi o'zbek adabiyotida yangi ijtimoiy taraqqiyotni aks ettirgan yirik she'riy asardir.

Ne sud ochilsa gul, o'lsa bahor g'urbat aro,
Mengaki bo'lmasa yoru diyor g'urbat aro,
Ochilmadi chamaniston havomidin ko'nglum,
Ko'zimga gul erur andoqki, xor g'urbat aro.
Chiqay Vatan sadafidin dema guhar yanglig',
Garchi bo'lsa senga e'tibor, g'urbat aro,

deb o'z elida, diyorida turib o'zini g'urbatda his qiladi [6]. Peterburg, Moskva, Toshkent kabi shaharlarni tomosha qilish, xalq ahvoli bilan tanishish shoir qalbidagi vatanparvarlik hissini yanada kuchaytirdi. Vatan taqdiri va uning kelajagi shoirlarga tinchlik bermadi.

Komil dunyoqarashining takomilida xon va uning amaldorlari hamrohligida 1883-yilda va undan keyin Moskva va Peterburgga, 1892 va 1896-1897-yillarda Toshkentga qilgan safarlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. U bu safarlarida avvalo, ilg'or rus madaniyati yutuqlari bilan tanishib, ulardan qattiq ta'sirlandi. Bynga xususan, Toshkent haqidagi madhiyasi yaqqol misol bo'la oladi. Bu asarida shoir Toshkentning rus madaniyati ta'sirida tez rivojlanayotganidan xursand bo'ladi. Kechqurunlari shahar parklarida er-xotinlar madaniy hordiq chiqarishlarini shunday ta'rif etadi:

Ro'zu shab sayr aylar anda huru g'ilmon o'rnig'a,
Sarvqadu guljabinu guluzori Toshkand [7].

Toshkent shahri ruslar tomonidan 1865-yilda istilo qilingan, istilodan chorak asrdan o'tib, Komil Xorazmiy Toshkentni tasvirlashicha, shaharda rus nafasi yaqqol sezilganini yozib o'tgan. Bundan ko'rinadiki, ruslar tomonidan Toshkent egallanganidan so'ng, bu shaharda o'zlarining madaniyatini yoyish uchun harakat qilganlar va bunga erishganlar ham fikrimcha.

Sir emaski, Komil Xorazmiy turmush kechirgan jamiyat ilm-u adab ahlini xorzor qilib, mol-dunyosi ko'p bo'lgan kimsalarni, ular ma'naviy tuban kishilar bo'lsalar ham, mansab-martabaga ko'tarar edi. Shoir bir o'rinda, so'zi gavharday

qimmatbaho nazmi go'zal va ma'noli shoirlar o'z qadrini topmayotganini afsus bilan qayd etadi:

*Yo'q e'tibor bu bozor aro hadaf yanglig,
Kishi esa so'zi mavzunu, ta'bi gavharsanj.*

Iqtidorli mutafakkir shoir ushbu ijtimoiy adolatsizliklar sababini ko'p o'yladi. Hayotni kuzatib, kimning mansabi yuqori, mol-mulki ko'p bo'lsa, aytgani-aytgan bo'ladi, mansabu-martabasi bo'lmasa, uning so'zi e'tiborga olinmaydi, deb ijtimoiy adolatsizliklardan iztirob chekadi.

Komil Xorazmiy ko'p yillar xon saroyining amaldori lavozimida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa ham, adolatli, ma'rifatparvar ijodkor sifatida fikr yuritir ekan,
mamlakatni, mulkni, xalqni boshqaruvchi kishilar dunyo ishlaridan, mamlakat

ichkarisidagi voqea-hodisalardan xabardor, uzoqni ko'ra biladigan, xushyor va ogoh kishilar bo'lishini ta'kidlaydi.

*Mansub yuz yil o'lsa kishi izz-u johga,
Bir lahza azl or ila nomig'a arzimmas [8].*

Bu baytdan shunday ma'no kelib chiqadiki, agar sen yuz yil izzat-u mansabga muyassar bo'lsang, bunga mag'rurlanma, sevinma, chunki bir lahzada mansabdan bo'shatilganingda, or-nomusga qolganingga arzimaydi. Shoirning bevosita joh ahliga - mansabdor shaxslarga qaratilgan bu so'zlari ularning esini joyiga solib, qo'yish maqsadiga qaratilgani ko'rinib turibdi.

Shoir fikricha, mamlakatda osoyishtalik, farovonlik bo'lishi uchun bebosh, sayoq adashganlarga chek qo'yish kerak. Bundaylar to'g'ri kishilarni ham yo'ldan

ozdiradi. Xorazmiy hayotni sinchkovlik bilan kuzatib, shunday xulosaga keladi. Har bir mamlakatning tinch va farovon bo'lishi, eng avvalo davlat rahbari - shohga bog'liq. Hayotda odamning boshiga ish tushmasligi uchun, fig'oni ohlar bo'lmasligi uchun shoh va uning atrofidagilar adolatli, rahmdil, saxovatli va shavqatli bo'lishlari zarur.

XIX yuzyillikda Xorazm xonligida soliqlarning ko'pligidan xalqning qiyin ahvolga tushishi holatlari haqida ham shoir Komil Xorazmiy o'z she'rlaridan darig' tutmagan. Xalqni tinkasini quritadigan soliqlarning soni tobora ko'paytirilishi, shubhasiz, shunday ham holi xarob ommaning paymonasi to'luvgiga sabab bo'layotgani haq. Ushbu soliqlar to'lovidan qashshoqlashgan, g'azablangan xalq 1855-56 yillarda isyon ko'tardi. O'sha tengsiz olishuv Pahlavonniyozning ko'zi o'ngida sodir bo'ldi.

O'sha yillari xalq qo'zg'olonlari ayovsiz bostirilgani bilan isyon olovini batamom o'chirish uchun xonlikda adolat hukmi bayrog'ini baland ko'tarmoq lozim edi.

U keyingi yillarda chaqimchilar dastidan, hasadgo'ylar hujumidan ozor chekayotgan, g'am-alamlar girdobiga mahkum bo'lgan vaqtlarida bir g'azali maqtasini mana shunday bitgan edi.

Komil ustig'a qilur g'amlar hujum ul navkim,
Lashkari Sayyid Muhammadshoh Qo'ng'iro't ustina [9].

Komil Xorazmiy shuningdek, satirik she'rlari orqali o'zi yashab turgan davrning ijtimoiy holatini tasvirlab beradi. Shoirning shunday she'rlaridan biri "Mulla-imom" asaridir. G'azal shaklida yozilgan kichik hajmli bu she'rda din ahllaridan mulla va imomlar haqida fikr yuritilib, ularning jamiyat hisobiga yashayotganliklari, tekinxo'rlik bilan hayot kechirayotganliklari fosh etiladi:

lydi Qurbon, demanglar, yugurar mulla-imom,
Uxlamay tongga etushdi, onag'ar mulla-imom.
Qidirib el ichida, yo'qdur, uyotini ko'ring
Xaltasi orqasida nonni yig'ar, mulla-imom.
El aro shuncha yig'ib nonni qanoat etmas,
Ilvirib gohi mo'zor uzra turar mulla-imom [10].

Demak, Komil Xorazmiyning bu va shunga o'xshash boshqa satirik asarlari shoirning butun jamiyat hodisalarini xalq manfaati nuqtayi nazaridan baholovchi yuqori va yangi g'oyaviy pozitsiyaga ko'tarilgan demokrat shoir ekanligidan darak beradi.

XULOSA

Komil Xorazmiy o'z davrining yirik ma'rifatparvari, shoir va olimi sifatida XIX yuzyillik Xorazm xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'z asarlarida chuqur badiiy va falsafiy tahlil etgan. Uning she'rlari va nasriy asarlarida xalqning turmush tarzi, jamiyatdagi tabaqaviy tafovutlar, mehnatkash insonning o'rni hamda iqtisodiy adolatsizliklar mahorat bilan yoritilgan. Shoir o'z ijodida iqtisodiy tengsizlik, savdo-sotiq, dehqonchilik va hunarmandchilik kabi sohalar orqali davrning real holatini tasvirlab, xalqni ma'rifat va adolat sari da'vat etgan. Komil Xorazmiyning asarlari nafaqat badiiy jihatdan, balki tarixiy manba sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. U o'z ijodi orqali Xorazm xonligi davridagi iqtisodiy munosabatlar, soliq tizimi, savdo aloqalari hamda ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi munosabatlarni yoritgan. Shu jihatdan, uning merosi XIX yuzyillik Xorazm vohasining, shuningdek Markaziy Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishda bebaho manba hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Komil Xorazmiy asarlari o'z davrining ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini aks ettiruvchi, xalq hayotiga chuqur kirib borgan, ma'naviy va tarixiy ahamiyatga ega durdona asarlardir. Uning ijodi orqali biz o'tmish voqeliklarini, xalqning dardu tashvishlarini, shuningdek, taraqqiyotga intilish ruhini anglaymiz. Shu sababli, Komil Xorazmiy merosini ilmiy asosda tahlil qilish va uni keng o'rganish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

TARIX

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. – Б. 241.
2. Машарипов О., Машарипов А. Хоразмнома. Ўнинчи китоб. Хоразм кўҳна фан ва маданият маскани. – Тошкент: Farzay-poligraf, 2020. – В.297.
3. Солаева М. Навоий ва Хоразм шоирлари (Анъанавийлик ва маҳорат масаласи нуқтаи назаридан). – Урганч, 1993. – Б. 62-64.
4. Ўзбекистон педагогикаси антологияси: Икки жилдлик. Ж.1. / (Тузувчи-муаллифлар: К.Ҳошимов, С. Очил; Таҳрир ҳайъати: М.Хайруллаев ва бошқ.). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 396.
5. Хоразмий К. Танланган шеърлар. (Нашрга тайёрловчи Р.Мажидий). – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1961. – Б. 21.
6. Эшжонов Ш., Қурбонов Р., Аллаберганов С. “Хоразм фидойилари” (Матн). Адабий-бадиий нашр, очерк ва ҳикоялар. – Урганч: “Тўмарис издошлари” журналист аёллар клуби МЧЖ нашриёти, 2024. – Б. 17.
7. Комил. Девон (Нашрга тайёрловчилар А.Ҳайитметов, В.Мўминова). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 5.
8. Shoir, xattot, musiqashunos, tarjimon va davlat arbobi Komil Xorazmiy tavalludining 195 yilligi munosabati bilan KOMIL XORAZMIY IJODIY MEROSINING O'ZBEK ADABIYOTI TARAQQIYOTIDAGI O'RNINI mavzusida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjumani MATERIALLARI // Sh.Alimova, M.Rahimova. Komil Xorazmiy she'riyatida adolatli jamiyat tasviri. – Urganch, 2020. – В.74-75.
9. Комил Аваз. Комил Хоразмий: Маърифий-бадиий роман. – Урганч: “Хоразм” нашриёти, 2015. – Б. 63.
10. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб (XIX асрнинг иккинчи ярмидан XX аср бошларигача). Дарслик. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1975. – Б. 241.